



INFLUENCE AND THREAT OF GLOBALIZATION ON THE WORLDVIEW OF MEMBERS OF SOCIETY

Shodiya Saydalieva

*Senior lecturer, Department of History, PhD
Kimyo International University in Tashkent
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: saydalievashodiya427@gmail.com*

ABOUT ARTICLE

Key words: globalization, national culture, ideological threats, national identity, national spirituality, cultural transformation, values, cultural integration, global internet network, informational factor.

Received: 19.01.25

Accepted: 21.01.25

Published: 23.01.25

Abstract: The process of globalization has become one of the most important and complex characteristics of the modern world. This process encompasses all spheres of public life, bringing about decisive changes in the cultures, economies, and spirituality of nations and peoples. The article discusses both the positive and negative consequences of globalization, as well as the dynamics of its impact on youth and nations. The author emphasizes the importance of strengthening the immunity of youth against the ideological threats of globalization and ensuring their spiritual harmony.

The article explores various stages of globalization and its impact on national consciousness, specifically the influence of economic and cultural integration on the preservation of national identity. It also examines threats associated with global information, ideas spread through the internet, and foreign ideological influences that threaten the moral and spiritual maturity of youth, as well as ways to prevent these threats. Additionally, the article highlights the importance of educational and propagandistic efforts to protect youth from the impact of modern informational and internet manipulations, as well as the need to strengthen their ideological immunity.

The article provides a thorough analysis of the process of globalization, outlining practical ways to combat ideological threats to

GLOBALASHUVNING JAMIYAT A'ZOLARI DUNYOQARASHIGA TA'SIRI VA TAHDIDI

Shodiya Saydaliyeva

*"Tarix" kafedrasi katta o'qituvchisi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: saydalievashodiya427@gmail.com*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: globalashuv, milliy madaniyat, mafkuraviy tahdid, milliy o'zlik, milliy ma'naviyat, madaniy transformatsiya, qadriyatlar, madiniy integratsiya, global internet tarmog'i, axborot omili.

Annotatsiya: Globalashuv jarayoni hozirgi dunyoning eng muhim va murakkab xususiyatlardan biri sifatida shakllandi. Bu jarayon ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olib, xalqlar va millatlarning madaniyatlari, iqtisodiyoti va ma'naviyatida hal qiluvchi o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Maqolada globalashuvning ijobiy va salbiy ta'sirlari, shuningdek, uning yoshlarga va millatlarga ta'siri orasidagi dinamika ko'rib chiqiladi. Avtor, globalashuvning g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlariga qarshi yoshlarning immunitetini mustahkamlash va ularning ma'naviy barkamolligini ta'minlashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Maqolada globalashuvning turli bosqichlari va uning milliy ma'naviyatlarga ta'siri, ya'ni iqtisodiy va madaniy integratsiyaning milliy o'zlikni saqlashga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, global axborot to'g'risidagi tahdidlar, internet orqali tarqatilayotgan g'oyalalar va yot mafkuraviy ta'sirlar, yoshlarning axloqiy va ma'naviy barkamolligiga tahdid solish va buning oldini olish yo'llari ham aniqlanadi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot va internet tortqoqlaridan yoshlarni himoya qilish, ularning g'oyaviy immunitetini mustahkamlash uchun ta'lif va targ'ibot ishlarining ahamiyatiga urg'u beriladi.

Maqola globalashuv jarayonining chuqr tahlilini o'tkazib, yoshlarga g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurashishda amaliy yo'llar, shuningdek, milliy ma'naviyatni muhofaza qilishdagi strategik muhim vazifalarni belgilaydi.

ВЛИЯНИЕ И УГРОЗА ГЛОБАЛИЗАЦИИ НА МИРОВОЗЗРЕНИЕ ЧЛЕНОВ ОБЩЕСТВА

Шодия Сайдалиева

*Старший преподаватель кафедры «История»
Ташкентский международный университет Кимё
Ташкент, Узбекистан
E-mail: saydalievashodiya427@gmail.com*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализация, национальная культура, идеологические угрозы, национальная идентичность, национальная духовность, культурная трансформация, ценности, культурная интеграция, глобальная интернет-сеть, информационный фактор.

Аннотация: Процесс глобализации стал одной из самых важных и сложных характеристик современного мира. Этот процесс охватывает все сферы общественной жизни, вызывая решающие изменения в культурах, экономиках и духовности народов и наций. В статье рассматриваются как позитивные, так и негативные последствия глобализации, а также динамика влияния этого процесса на молодежь и нации. Автор подчеркивает важность укрепления иммунитета молодежи против идеологических и идеологических угроз глобализации, а также обеспечения их духовной гармонии.

В статье исследуются различные этапы глобализации и её влияние на национальное сознание, а именно — влияние экономической и культурной интеграции на сохранение национальной идентичности. Также рассматриваются угрозы, связанные с глобальной информацией, идеями, распространяемыми через интернет, и чуждыми идеологическими влияниями, которые угрожают моральной и духовной зрелости молодежи, а также пути предотвращения этих угроз. Кроме того, акцентируется внимание на важности образовательной и пропагандистской работы для защиты молодежи от воздействия современных информационных и интернет-манипуляций, а также на укреплении их идеологического иммунитета.

Статья предоставляет глубокий анализ процесса глобализации, обозначает практические пути борьбы с идеологическими угрозами для молодежи и стратегически важные задачи для защиты национальной духовности.

KIRISH

Globallashuv jarayoni hozirgi dunyoning muhim xususiyatdir. U murakkab va ziddiyatli, ayni paytda obyektiv jarayon ekanligi bilan harakterlanadi hamda ijtimoiy hayot sohalari bilan bog‘liq. Bu bir tomonidan, ijtimoiy hayot talablari, global yutuqlarga bo‘lgan ehtiyoji bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinichi tomonidan globallashuv turli xalqlar, millatlar ijtimoiy hayot sohalariga turli xil ta’sir ko‘rsatmoqda.

Globallashuvning ta’sirini pozitiv va negativ ko‘rinishlariga ega ekanligini ta’kidlash lozim. Buning ham o‘ziga xos sabablari mavjud. Globallashuvning g‘oyaviy va mafkuraviy tahdidlari ana shunday ko‘rinishlaridan biridir. Globallashuv jarayonining g‘oyaviy va mafkuraviy hayot sohalarida turli xil g‘oyaviy-mafkuraviy tahdid ko‘rinishlarining sabablarini hamda omillarini, namoyon bo‘lish xususiyatlarini holisona o‘rganish, tahlil etish asosida yoshlarda bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilish hamda globallashuvning g‘oyaviy va mafkuraviy tahdidlari bilan tanishtirish va uning negativ oqibatlarini yoritish orqali globallashuvning salbiy ta’sirining oldini olishda g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga ko‘maklashishdan iborat.

Globallashuv turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma’naviyati, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va bog‘liqlikning kuchayishidir. Globallashuvga berilgan ta’riflar juda ko‘p. Ularga asoslangan holda globallashuv jarayonining asosiy xususiyatlarini quyidagicha sharhash mumkin:

- Globallashuv - muttasil davom etadigan tarixiy jarayon ekanligi;
- Globallashuv - jahonning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;
- Globallashuv - milliy chegaralarning “yuilib ketish” jarayoni;
- Ishlab chiqarishda ishlab chiqarishning xalqaro formalariga o‘tilishi, ishlab chiqarish omillari harakatining jadallahuvi;
- Jahon mamlakatlari iqtisodiyotida yagona xalqaro standartlarining joriy etilishi;
- Ko‘pchilik mamlakat xalqlarining madaniyatida, kundalik hayotida yevropacha (vesternizatsiya), yoki amerikacha (amerikanizatsiya) turmush tarzining namoyon bo‘lishi;
- Globallashuv investitsiyalar, kapital, texnika va tovarlarning butun dunyo bo‘ylab oqishining jadallahib va keng miqyosga ega bo‘lib borayotgan murakkab jarayon sifatida baholanishi;
- Globallashuv turli xalqlarni nihoyatda yaqinlashtiradigan ommaviy madaniyat tufayli yuzaga kelgan tub o‘zgarishlar bilan bog‘liqligi;
- Globallashuv demokratik jarayonlar natijasi sifatida butun yer yuzida hayot darajasi yuksalib borishiga va qashshoqlik darajasining ancha pasayishiga yordam beruvchi shart-sharoit deb qaralishi;

• Globallashuv ishlab chiqarish samaradorligini rag‘batlantirish va imkoniyatlarni kengaytirish, iqtisodiyotni o‘stirish evaziga qo‘shimcha ish joylarini yaratadigan integratsion jarayon sifatida qaralishi;

• Globallashuv sanoat va axborot sohalaridagi inqilob bilan chambarchas bog‘liqligi va shu kabilardir.

Tan olish kerakki, globallashuv, integratsiyalashuv va “axborot asri” deb atalmish jarayonlar jadallahib ketgan xozirgi vaqtida yoshlarni turli axborot xurujlaridan, yot mafkuraviy ta’sirlardan ximoya qilish dolzARB masalalardan bulib qolganligi xech kimga sir emas.

Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayoni ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalariga kirib bormoqda. Xususan, globallashuv sharoitida axborot omilining yetakchi o‘ringa chiqayotganligi bois bunday sharoitda yoshlarimizni turli global tahdidlardan himoya qilish, ularni g‘oyaviy tahdidlarga qaram bo‘lmaydigan ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishlarini ta’minalash har qachongidan ham muhim. Chunki globallashuv ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy xususiyatlarga ham ega bo‘lib, bular birinchi navbatda mafkuraviy tahdidlarning hech qanday chegaralarsiz kirib kelishi bilan xarakterlanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «Biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi globallashuv davri o‘ta shiddat bilan o‘zgarayotgan va turli tahdidlar ko‘pligi bilan oldimizga hal etishni kechiktirib bo‘lmaydigan g‘oyat murakkab vazifalarni qo‘ymoqda» [1. B. 45].

Haqiqatan ham, bugun insoniyat yashayotgan davr, o‘tmishdagilardan farq qiladi. Bu davrga globallashuv natijasida yagona iqtisodiy makonning yuzaga kelishi asos bo‘ldi. Lekin iqtisodiyotdagи o‘sish hali yer yuzida yashayotgan xalqlarning ehtiyojlarini qondirish darajasigacha ko‘tarilganicha yo‘q edi. Bu borada yana taraqqiyotda oldinga chiqib olgan mamlakatlar yagona iqtisodiy makonning egalariga aylanishiga erishdilar. Ayniqsa, ushbu mamlakatlarda shakllantirilgan transmilliy korporatsiyalar ularning iqtisodiyotdagи gegemonligini ta’minalashga xizmat qildi. Bu globallashuvning mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar amaliyoti uchun tengsizlikning chuqurlashuviga o‘zining ta’sirini o‘tkazadi. Lekin bu jarayonning mamlakatlar, xalqlar, millatlar va ular hayotining boshqa sohalariga o‘tkazadigan ta’siriga nisbatan qarashlar ijobiy bo‘lganligi bois, uning istiqbolda yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan salbiy jihatlari e’tibordan chetda qolib kelgan edi. Bugun ana shu «istiqbol» davrining bosqichi boshlandi, deyishimiz mumkin. Chunki bugungi globallashuvning nafaqat nazariy jihatlari haqida bir qator konseptual g‘oyalar ishlab chiqilgan, shuningdek, uning taraqqiyotga o‘tkazayotgan salbiy va ijobiy jihatlari amaliyotda o‘zining isbotini topib kelmoqda.

Haqiqatdan ham, globallashuvning boshlanishi insoniyat va jamiyat taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Uning mazmuni shundaki, garchand dunyo doimo qarama-qarshiliklarga

to‘la holda rivojlanib, insoniyat ham ziddiyatlari holatlarda yashab kelgan bo‘lsa ham, ularning barchasi global lashuv jarayonining boshlanishi bilan yangi bosqichga ko‘tarildi. Boz ustiga, ular o‘ta ziddiyatlari holatda kechmoqda, ya’ni rivojlanish va inqirozdan iborat jarayon global lashuvning boshlanishida yuzaga qalqib chiqishiga olib keldi. Buning natijasida turli xavf-xatarlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri “tahdid” darajasidagi kuchga aylandi. Xuddi ana shu ma’noda ham “global lashuv sharoitida” o‘tmishda sodir bo‘lgan taraqqiyot bosqichlaridan tubdan farq qiluvchi yangi vaziyat, ziddiyatlar, beqarorlik “tahdidlari”ning real kuch sifatida amal qilayotgan holatidir.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Millatlar ma’naviyatiga nisbatan yuzaga keladigan tahdidlarning tahliliga kirishar ekanmiz, ularning shakllanish jarayonini ham ma’lum bosqichlarga ajratib, o‘ziga xos xususiyatlari dinamikasi va amal qilish holatlariga asosiy e’tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz. Zero, millatning etnik birlik bo‘lib birlasha boshlagan dastlabki bosqichida mavjud bo‘ladigan xavf-xatarlar bilan uning real omil sifatida barqaror rivojlanishida yuzaga keladigan yoki amal qiladigan xavf-xatarlar darajalari turli-tuman va ularning tahdidga aylanish imkoniyatlari ham bir darajada bo‘lmaydi. Ular, yuqorida ta’kidlaganimizdek, millatning yuksalish jarayoniga mos ravishda kuchayib boraveradi.

Ana shu konseptual g‘oyamizga asoslanib, milliy ma’naviyatlarga nisbatan xavf-xatarlarning “tahdid”ga aylanishini shartli ravishda quyidagi uch bosqichga ajratish mumkin, deb hisoblaymiz:

birinchi bosqich millatning etnik birlik bo‘lib shakllanish davrini o‘z ichiga oladi;

ikkinci bosqich millatning etnik birlik sifatida o‘zining “men”ligini namoyon etish darajasiga erishgan davrini o‘z ichiga oladi;

uchinchi bosqich ko‘pgina millatlarning yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarilishi hamda ularning ehtiyojlarini amalga oshuvida tengsizlikning amaliyotga aylanishini yuzaga keltirgan global lashuvning boshlanishi hamda uning avj olishi davri bilan bog‘liqdir[3. B. 14].

Birinchi bosqichda xavf-xatarlarning tahdid darajasiga ko‘tarilish imkoniyati nihoyatda kam. Chunki bu davrda millatning o‘zi mustaqil omil sifatida hali zaif bo‘lib, ularning biri ikkinchisiga xavf-xatar keltirishdan ko‘ra, o‘zining mustahkam oyoqqa turib olishi asosiy vazifa sifatida amal qiladi. Xuddi shu bois ham u o‘zligini to‘la anglab yetolmagan bo‘ladi. O‘zligini anglash darajasiga yetib kelmagan millat esa o‘zgalarga xavf-xatar ham tug‘dira olmaydi. Falsafa fanlari nomzodi, dotsent Z.Xayitov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Milliy o‘zlikni anglash tasodifan paydo bo‘lmaydi, ma’lum shaxslar tomonidan yaratilmaydi ham. U millatning uzoq davom etgan moddiy-ma’naviy hayotining mahsuli sifatida shakllanadigan hodisadir. Ya’ni insonlarning o‘zligini anglashi, barcha aqliy va ruhiy imkoniyatlari, his-tuyg‘ulari, xarakteri, dunyoqarashi jamiyatdagi hayoti va faoliyati davomida shakllanadi” [3. B. 14].

Haqiqatdan ham, milliy o‘zlikni anglash jarayoni uzoq davrni o‘z ichiga oladi. Ayni paytda, millatning etnik birlik bo‘lib birlashuvi hali uning o‘zligini to‘la anglab yetganligini bildirmaydi. Balki ana shu jarayonlarning boshlanishi uchun mustahkam omilning yuzaga kelganligini bildiradi.

Professor V.Qo‘chqorov milliy o‘zlikni anglashning xususiyatlari va imkoniyatlari haqida quyidagicha yozgan: “Milliy o‘zlikni anglash... butun xalq, millat uchun hayotiy ideal bo‘la oladigan shaxslarning ibratli hayoti, ma’naviy merosi, namunali xatti-harakatidan madad oladi, ularga ergashadi. Ushbu “hayotiy ideallar” kishining hayot yo‘lini mayoqdek yoritib turadi, unga qanday qadriyatlarga amal qilib, murakkab g‘oyaviy kurashlar, to‘qnashuvlar avj olgan dunyoda kimlar bilan inoq, ahil bo‘lib, qanday maqsadlarga talpinib yashashga o‘rgatadi”[4. B. 63]. Bu fikrdan ko‘rinib turibdiki, milliy o‘zlikni anglash millat vakillarining ma’naviy barkamolligi va ularning o‘z millatiga nisbatan bo‘ladigan munosabatlari uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Uning asosiy qudrati va kuchi milliy manfaatlarni himoya qiluvchi omil ekanligida o‘z ifodasini topadi. U faqat millat real omil sifatida ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy jihatdan o‘z “men”ligiga erishgan paytdagina yuzaga keladi va amal qila boshlaydi.

Milliy ma’naviyatga nisbatan xavf-xatarning tahdidga aylanishi millatning o‘z “men”ligini namoyon etish darajasiga yetib kelganida sodir bo‘ladi. Bu davr millat rivojlanishining ikkinchi bosqichi bilan bog‘liq holda kechadi. Bu davrga xos xususiyatlar quyidagi omillarda o‘z ifodasini topadi: a) yagona til, urf-odat, ya’ni qadriyatlar, yagona hudud, iqtisodiy hayot birligi, milliy o‘zlikni anglashning etnik birligini uyushtirib, millat mustaqil omil darajasiga olib chiqqanda; b) yuqoridagi omillarning amaliy jihatdan namoyon bo‘lishi nafaqat milliy o‘ziga xoslikni, manfaatlarni himoya qilishni, shuningdek, har bir millatning ikkinchisidan ustunlikka erishish uchun kurashishi ham yuzaga keladi. Xuddi mana shunday vaziyatda milliy madaniyatlarga nisbatan xavf-xatarlarning tahdidga aylanishi sodir bo‘ladi[4. B. 70].

Agar bu jarayonning amaliy jihatlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, millatlarning o‘zaro munosabatlarida qaysi bir millat taraqqiyotda qancha ilgarilab ketgan bo‘lsa, ularning taraqqiyotdan orqada qolayotgan yoki endi shakllanish bosqichiga kirib borayotgan millatlarga nisbatan xavf-xatarning kuchayib borganligini ko‘ramiz.

Globallashuvni milliy ma’naviyatlarga o‘tkazadigan ta’sirini ikki jihat mavjudligini ham nazarda tutishimiz lozim. Ya’ni u nafaqat rivojlanayotgan yoki rivojlanishda orqada qolayotgan millatlar va xalqlar ma’naviyatlariga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda, shuningdek, taraqqiy topgan mamlakatlarda yashayotgan turli millatlar va xalqlar ma’naviyatlariga ham o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazmoqda.

Milliy ma’naviyatlarga xavf-xatarlar har doim mavjud bo‘lgan, ular tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichida tahdidlar darajasiga ko‘tarilgan. Ularning ta’siri ham turli darajalarda sodir

bo‘lgan. Ammo ular milliy ma’naviyatlarning butunlay barbod bo‘lishiga olib kelmagan. Bugun avj olayotgan globallashuv esa milliy ma’naviyatlarga qarshi xavf-xatarni emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri katta kuchga ega bo‘lgan tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Ularning oldini olish imkoniyatlarini izlab topish va ilmiy asoslash dolzARB vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Chunki bugungi tahdidlar real kuch sifatida milliy ma’naviyatlarning yemirilishini kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda mamlakatimizda yashayotgan barcha insonlarning o‘zaro jipsligi, turli tahdidlarga qarshi yagona kuch sifatida harakat qilishga erishilishi bilan bog‘liq imkoniyatlarimizdan samarali foydalanishimiz lozim. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yanada ogoh va sergak bo‘lish eng asosiy boyligimiz bo‘lgan va biz haqli ravishda faxrlanadigan ko‘pmillatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko‘z qorachig‘idek asrash hamda yanada mustahkamlash O‘zbekistonni o‘z vatani, deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir”[1. B. 298-299]. Ana shunday tuyg‘ularning mustahkam bo‘lishi milliy ma’naviyatlarga nisbatan yuzaga keladigan tahdidlarning oldini olishda amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar aholining ma’lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o‘zlariga ma’qul bo‘lgan yo‘nalishda o‘zgartirish, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi buzg‘unchi g‘oyalarni singdirishga urinishdek ko‘rinishlarda sodir bo‘lmoqda

Hozirgi tahlikali zamonda internet tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli ma’lumotlar, turli buzg‘unchi g‘oyalalar, odob-ahloqni yemiruvchi manfur illatlar har bir ongli kishini tashvishga solishi aniq.

Keyingi paytlarda internet bilan bog‘lik buzg‘unchiliklar, global tarmoqdan qabih maqsadda foydalanayotganlar ko‘payib bormoqda. Oqibatda, zalolatga boshlovchi elektron nashrlar va videolavhalar keng yoyilmoqda.

G‘alamis kimsalar yoshlarni o‘z tuzoqlariga ilintirishda internetdan ustalik bilan foydalanmoqda. O‘zlarini “yaqin do‘s” yoki “hidoyatga chorlovchi” sifatida tanitib, yoshlarni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itmoqda. Aslida, ularning din va shariat haqida umuman ilmlari yuq, faqatgina to‘da boshidan yodlab olganlarini takrorlashdan nariga o‘tmaydilar. Boshqa tomondan qaraganda, ular bu johilligi bilan boshqalarni ham jar yoqasiga tortayotgani va kimningdir nog‘orasiga uynayotganini bilmaydilar. Bundaylar avval dinu diyonat, ibodat, jannat haqida turli jozibali so‘zlarni gapirib, g‘o‘r yoshlarni yo‘ldan urib, oxir-oqibatda, razolat qurbaniga aylantirmoqda.

Internetdan olingan narsa to‘g‘ri, ishonchli va zararsiz ekanini bilish kerak. Yaxshi-yomonning farqiga bormagan yoshlar internet orqali tarqatilgan har qanday ma’lumot-xabarlarini haqiqat deb qabul qilayotgani jiddiy xavotirga soladi.

Islom talimoti buzg‘unchilikni, odamlar qalbiga vahima, dushmanlik va fitna urug‘larini sochishni qattiq qoralaydi. Ma’lumki, so‘nggi yillarda dinni o‘zlariga niqob qilib olgan oqimlar, toifalar paydo bo‘ldi. Ular g‘arazli maqsadlari yo‘lida jamiyatda buzg‘unchilik, begunoh odamlar qonini nohaq to‘kish kabi jinoyatlarni avj oldirib, fuqarolar tinchligini buzib, xalq orasida nizo chiqarishga harakat qilishmoqda.

Sarhadsiz internet dunyosiga kirgan shaxs vaqt, umr g‘animat ekanini doimo yodda saqlamog‘i lozim. Zero, bu global tarmoq bepoyon hududlarga ega bo‘lib, unda inson adashib soatlab, kunlarini samarasiz o‘tkazib yuborishi mumkin.

Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ongu shuurini internet orqali kirib kelayotgan zararli g‘oya va ta’sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o‘qituvchilar, ma’naviyat targ‘ibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo‘lishini, yosh avlodning g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko‘lamini yanada kengaytirishni talab qiladi. Bizga ma’lumki, ko‘plab sayt va tarmoqlar katta mablag‘lar evaziga filtrlab qo‘yilgan va bu holatni ko‘plab davlatlarda kuzatish mumkin. Albatta, taqiqlar yoki filtr vositalari orqali odamlarni Internet olamidagi turli kuchlarning xatarli tahdidlaridan, keraksiz va salbiy axborotlardan saqlash kiyin va faqatgina vaqtinchalik holat bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov takidlaganidek, “...yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shlik yuzaga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz kerak”[2. B. 36].

Taassufki, bugun yoshlarimizning aksariyati globallashuv tufayli Yevropa va xorijiy ma’naviy-madaniy oqimlar ta’siriga ko‘proq ishtiyoqmand bo‘lib, milliy ma’naviyatimizning hayotbaxsh, yuksak axloqiylikka asoslangan tamoyillarga ixlosmandligi sust kechmokda. Inson qadri, mas’uliyati, axloqiga bepisandlik ba’zi yoshlarning kiyinishi, fe’l-atvori, yurish-turishida yaqqol ko‘zga tashlanib qolmoqda. Bizning nazarimizda inson qadriyati uning axloqiylikka yo‘nalgani bilan belgilanishi kerak. Darxaqiqat, bugun axborot chunonam ko‘p va tez kirib kelayaptiki ularni “hazm” qilish uchun teran tafakkur va keng dunyokarash talab etiladi. Ayniksa internet olami farzandlarimiz e’tibori va qiziqishini tortib borayotgan bugungi davrda ayrim kompyuter o‘yinlari haqida ham shunday misollarni ketirish mumkin. Mutaxassislar ma’lumotlariga ko‘ra, internet orqali tarkatiladigan kompyuter o‘yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo‘ravonlik va yovuzlik ko‘rinishiga ega, 41 foiz jangari (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) o‘yinlarda esa o‘yin qahramoni o‘z maqsadiga yetishish uchun shunday zo‘ravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz o‘yinlarda ana shu zo‘ravonlik va yovuzlikning o‘zi bosh maqsad hisoblanadi. Turli jangovar, mentalitetimizga mos bo‘lmagan, ba’zan qahramonlik vahshiylikka o‘tib ketadigan bu kabi o‘yinlar farzandlarimiz axloqiy-estetik tarbiyasiga to‘g‘ri ta’sir ko‘rsata

oladi deya olmaymiz. Bir qarashda ular oddiy o‘yindek ko‘ringani bilan zo‘ravonlik g‘oyalari, yovuzlik kayfiyatini uyg‘otishi juda ko‘p salbiy okibatlarga olib kelgani xususida hayotiy misollar ko‘plab topiladi [5. B. 1].

Internet saytlarida yoshlarga kuchli ta’sir etuvchi axborotlarni quyidagicha tasniflash mumkin.

Birinchi toifadagi axborotlar sirasiga yot, buzg‘unchi g‘oyalalar (diniy ekstremizm va terrorchilik g‘oyalari, millatchilik, irqchilik, sadizm kabilar)ni kiritish mumkin.

Ikkinci toifadagi axborotlar esa g‘arb hayot tarziga xos, o‘zbek mentalitetiga zid odatlar va ko‘nikmalarni targib etadi. Bu ayniqsa, g‘arb yoshlarning kiyinishi, odatlarini targ‘ib qiluvchi maqolalar, kliplar, filmlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Uchinchi toifaga esa pornografik axborotlarni kiritish mumkin.

To‘rtinchi toifaga esa hali tekshirilmagan, o‘z isbotiga ega bo‘lmagan turli hujumkor axborotlarni kiritish mumkin.

Internet saytlaridan tarqatilayotgan bu kabi yot g‘oyalalar va axborotlarni yoshlар tomonidan qabul kilinayotganligi va uning oqibatlari jahondagi barcha mamlakatlari xalqini ham tashvishga solmoqda.

XULOSA

Yoshlарimiz ongini egallahsga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarga, milliy manfaatlarimizga raxna solishga, ma’naviyatimizga tajovuz qilishga, umrimiz mazmuni bo‘lgan tarixiy xotiramizni buzishga urinayotgan g‘arazli kuchlarga qarshi doimo ogoh turishimiz darkor. Ana shundagina bizni hech kim, hech narsa o‘z tanlagan yo‘limizdan ortga qaytara olmaydi va biz ko‘zlagan ulug‘vor maksadlarimizga albatta yetamiz.

Yurtimizga olomoncha madaniyat asosan internet tarmog‘i orqali kirib kelayapti. Bu hol odob-axloq, milliy va diniy qadriyatlarga hurmat pasayishi kabi ko‘plab noxushliklarni keltirib chiqaryapti. Yoshlarning hayosizlarcha kiyinishi, tanalariga rasm chizdirishi, quloq va burunlarini teshib, “zirak” taqib olishlari, qiz bolalarning o‘g‘il bolalarga o‘xshab kiyinishi kabi “moda” unsurlari aynan internet orqali yoyilayotgani aniq [5. B. 1].

Internetdagи g‘oyaviy tuzoqlar go‘yo madaniyatga o‘xhashi va yoshlarga moydek yoqishi bilan ham xatarlidir. Insoniy axloqda ters olomoncha madaniyat ayrim yoshlар oniga chang solib, ma’naviyat kushandasiga aylanmoqda. Achinarlisi, mazkur “madaniyat” ta’siriga berilib qolganini yoki uning qurbaniga aylanayotganini ko‘pincha yoshlар o‘zları sezmaydi.

Global axborot tizimidagi xabarlarni “filtrsiz” qabul qilish oqibatida yoshlар ongi zaharlanmoqda. Masalan, biror kerakli ma’lumotni olish maqsadida saytga kirgan yoshlarning “falonchi mashhur shaxs halokatga uchradi” kabi shov-shuvli e’longa ko‘zi tushadi va beixtiyor

uni ochadi. U yerda esa yana bir sayt ochiladi va unda aldamchi xabarlarning davomini o‘qiydi. Shu tariqa g‘o‘r yoshlar g‘alamislarning tuzog‘iga ilinadi.

Bunday “madaniyat” ta’siriga berilgan o‘smir loqayd, hayotga yengil-yelpi qaraydigan, yurt ravnaqi va xalq tinchligiga befarq kimsa bo‘lib ulg‘ayadi. Ijtimoiy tarmoqlarning oila va jamiyat barqarorligiga solayotgan eng katta taxdidlaridan yana biri – ulardagи muloqotlar sababli ko‘plab tinch-totuv oilalar barbod bulib ketayotganidir.

Insonlar qalbi va ongi uchun katta kurashlar kechayotgan globallashuv davrida yuksak ma’naviyat, odob axloq tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirish dolzarb vazifadir. O‘sib kelayotgan yosh avlodni diniy – milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular qalbida o‘z xalqi, Vataniga mehr-sadoqat tuyg‘usini kuchaytirish, ularni xar-xil buzg‘unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish, munosib himoya qilishdan iboratdir.

IQTIBOSLAR / CHOCKI / REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –
2. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т. “Маънавият” 2008.
3. Хайитов З. Мустақиллик ва миллий ўзликни англаш. – Тошкент: Фан, 2008.
4. Кўчқоров В. Миллий ўзликни англаш ва ижтимоий-сиёсий жараёнлар (Сиёсий-фалсафий таҳлил). – Тошкент: Akademiya, 2007.
5. Нарзуллаев О. Ёшларни интернетдаги ахборот хуружлари ва мафкуравий таҳдидлардан асраш. <http://fitrat.uz/yoshlarni-internetdagi-ahborot-huruzhlari-va-mafkuravij-tadidlardan-asrash>